Til – dil tarjimoni
O'zbek xalq maqoli

1991-yildan chiqa boshlagan

2020-yil. 1-son

ISSN 2010-5584

# TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

# ПРЕПОДАВАНИЕ ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

# LANGUAGE AND LITERATURE TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

til_adabiyiot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyiot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyiot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyiot@umail.uz www.tilvaadabiyo

**2020-YIL – ILM-MA'RIFAT VA RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH YILI**



**Alisher Navoiy tavalludiga 579 yil**

## Ushbu sonda:

Dars – muqaddas



8-bet

**Ilm istang, izingizdan ibrat yog'sin**

Metodik tavsiya



15-bet

**Dars jarayonida matn tuzish**

Tadqiqotlar



35-bet

**Modal so'zlar orqali pragmatik bahoning ifodalanishi**

Обсуждаем, спорим



80-bet

**Нужен ли кружок русского языка в школе?**




O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2014-yil 19-dekabrda 0055-raqam bilan qayta ro'yxatga olingan.

**2020-yil. 1-son.**

1991-yildan chiqa boshlagan

# TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

# ПРЕПОДАВАНИЕ ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

# LANGUAGE AND LITERATURE TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

**Bosh muharrir**

Bahodir JOVLIYEV

**Tahrir hay'ati:**

Sherzod SHERMATOV
Dilshod KENJAYEV
Maqsudxon YO'LDOSHEV
Nizomiddin MAHMUDOV
Nargiza RAHMONQULOVA
Yorqinjon ODILOV
Mamatqul JO'RAYEV
Nasirullo MIRKURBANOV
Jabbor ESHONQULOV
Lutfullo JO'RAYEV
(bosh muharrir o'rinbosari)
Nilufar Namozova

**Jamoatchilik kengashi:**

Muhammadjon ALIYEV
Ergesh ABDUVALITOV
Manzura DADAXO'JAYEVA
Ehson TURDIQULOV

**Sahifalovchilar:**

Akmal FARMONOV
Gulnoza VALIYEVA

**Nashr uchun mas'ul:**

Nilufar NAMOZOVA
Nigora URALOVA
Emma TOROSYAN

**Tahririyat manzili:**
100038, Toshkent shahri Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.
Telefon: (98) 121-74-16,
(71) 233-03-10,
(71) 233-03-45,
(71) 233-03-67.
e-mail: til_adabiyot@umail.uz
veb-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Jurnaldan ko'chirib bosilgan maqolalar «Til va adabiyot ta'limi»dan olindi, deb izohlanishi shart.

Jurnalda nashr etilgan maqolalarda mualliflarning tahririyat nuqtayi nazariga muvofiq kelmaydigan fikr-mulohazalari bosilishi mumkin.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Bosmaxonaga 10.02.2020-yilda topshirildi. Ofset usulida chop etildi. Qog'oz bichimi $60x84^{1}/_{8}$. Shartli bosma tabog'i 6,0. «Times» garniturasi. 10, 11 kegl. «EKO TEXTILE PRODUKT» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Manzil: Toshkent sh. Mirobod tum., Matbuotchilar ko'chasi 32-uy. Buyurtma ___ Adadi 4200 nusxa. Bahosi kelishilgan narxda.

## MUNDARIJA

### SUHBAT

**Shavkat NISHANOV.** Adabiy ta'lim: lug'at va matnshunoslik ........ 3

### NAVOIYDAN NAVOLAR KELUR

**Asror MO'MIN.** Qush tili ........ 5

### DARS – MUQADDAS

**Gulnoza QO'LDOSHEVA.** Ilm istang, izingizdan ibrat yog'sin ........ 8
**Umid HAMROYEV.** To'liq va to'liqsiz gaplar ........ 10
**Nargiza URAZOVA.** Prozada yaratilgan poeziya ........ 13

### METODIK TAVSIYA

**Shahnoza ZIYAMUXAMEDOVA.** Dars jarayonida matn tuzish ........ 15
**Aziza SAYDULLAYEVA.** Ona tili darslarida bayon yozdirish va uni tahlil qilish metodikasi ........ 16
**Xolida TOJIYEVA.** Matnni sharhlab o'rganish ........ 20
**Norqul BEKMIRZAYEV.** Boburning badiiy nutq mahorati ........ 21
**Adiba BOTIROVA.** Adabiyot fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalar va o'yin-topshiriqlardan foydalanish ........ 23

### TAHLIL

**Durdona RASULMUHAMEDOVA.** Amir Temur obrazini yaratishda tarixiy rivoyatlarning ahamiyati ........ 24
**Dilfuza ZARIPOVA.** "Har so'zni andisha bila boshlag'il..." ........ 26
**Qo'chqor SIDDIQOV.** Mumtoz adabiyot xazinasining tilla kaliti ........ 28
**Ra'no YAXYOYEVA.** Mutolaa kundaligi qanday tutiladi? ........ 29
**Usmonjon QOSIMOV.** Tarixiy haqiqat va badiiy talqin ........ 30
**Umida RASULOVA.** Qissalarda badiiy obraz mohiyati ........ 31

### TADQIQOTLAR

**Sherzod NORMO'MINOV.** So'z turkumlaridagi yadro va periferial qismlar va ularni shakllantiruvchi asoslar ........ 33
**Gulchehra G'ANIYEVA.** Modal so'zlar orqali pragmatik bahoning ifodalanishi ........ 35

### KICHIK TADQIQOT

**Feruza ATABEKOVA.** Til realiyalarining ijtimoiy-madaniy xususiyatlari ........ 37
**Umida NOSIROVA.** So'z poetikasi pragmatikaning tadqiqot obyekti sifatida ........ 38
**Gulnoza AHMEDOVA.** Nutqiy muloqot madaniyatini o'rgatishning lingvodidaktik asoslari ........ 40
**Feruzaxon KARIMOVA.** Dialogik nutqning o'ziga xos xususiyatlari ........ 41
**Intizor ABDIRIMOVA.** Ta'lim tizimida klasterning o'rni ........ 43
**Siroj FAZILOV.** Xalq og'zaki ijodi va zamonaviy dostonchilik ........ 44
**Ravshan NIYAZOV.** Amerika nasrida yuridik detektiv romanchilikning rivojlanish bosqichlari ........ 46
**Muxlisa HAFIZOVA.** Adabiyotni o'qitishda adabiy kompetentlilikni shakllantirishning ahamiyati ........ 48

### МЕТОДИКА. ОПЫТ

**Снежана Кутлуева.** Вопросительные местоимения ........ 49
**Малика Кутлуюлова.** Т.Гаипов. Сказка «Обиженные двойки» ........ 50
**Мадинабону Ахмедова.** Творчество Захара Прилепина ........ 52

### ИСПОЛЬЗУЙТЕ ЭТИ МАТЕРИАЛЫ

**Анна Шереметьева.** Интерактивные лекции по словообразованию русского языка ........ 53
**Равшана Исакова.** Владение речевым этикетом – приобретение авторитета, порождающего доверие и уважение 55
**Манзура Имамалиева.** Применение метода «Деловая игра» на занятиях в неязыковом вузе ........ 57
**Юлия ЗЕМЛИНА.** Развитие коммуникативных компетенций руководителя общеобразовательного учреждения через проектную деятельность ........ 58
**Фатима Хакимова.** Приемы развития устной речи и самостоятельного мышления учащихся при обучении русскому языку на основе сказок ........ 60

### ИЗ ОПЫТА ПРЕПОДАВАТЕЛЯ

**Саодат Магдиева.** Реализация принципа образовательной рефлексии в практике преподавания литературы в вузе ........ 62
**Наргис Саримсакова.** Структура и содержание методики формирования орфоэпической компетенции курсантов ........ 63
**Раъно Турдиева.** Развитие у школьников пунктуационной зоркости ........ 65
**Дилором Шодиева.** Языковой портфель – инструмент самореализации профессионально-языковых компетенций студента ........ 67

### ЯЗЫКОЗНАНИЕ

**Махлиё Зайнутдинова.** Морфонологические явления в русском отъадективном словообразовании ........ 70

### ИЗУЧАЕМ ИНОСТРАННИЕ ЯЗЫКЕ

**Беккенбауэр Реймов, Айшолпан Ниязова.** Новогодние компоненты при изучении английских фразеологизмов .72
**Малика Солиева.** О фонологической структуре заимствованных слов английского языка ........ 74
**Анвар Юсупов.** Особенности изучения иностранного языка в условиях двуязычия (произношение) ........ 76

### НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

**Эльвина Алиева, Зарина Ахунова.** Аллюзивная игра в произведении Ф.Кривина «Сказка про козлика» ........ 77

### ОБСУЖДАЕМ, СПОРИМ

**Ферузахон Якубова.** Значение духовно-нравственного воспитания в системе формирования личности будущего специалиста ........ 79
**Махфуза Ахмедова.** Нужен ли кружок русского языка в школе? ........ 80

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI
LANGUAGE AND LITERATURE
*jurnali*

*O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining Filologiya va Pedagogika fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashr.*

**Intizor ABDIRIMOVA,**
Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti
O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi

# TA'LIM TIZIMIDA KLASTERNING O'RNI

Jamiyatda yuz berayotgan o'zgarishlar nafaqat sanoat, qishloq xo'jaligi, balki ta'lim sohasini ham qamrab olmoqda. Mamlakat taraqqiyoti bevosita o'sha millat va jamiyat a'zolarining yuksak intellektual salohiyati, vatanparvarlik tuyg'usi hamda ta'lim-tarbiyaga berilgan e'tibor bilan chambarchas bog'liq. Demak, qayerdaki yuksalishni ko'rsak, buning zamirida o'sha davlatdagi o'qitish, ta'limga ajratilgan ma'naviy, iqtisodiy e'tibor turishini anglash qiyin emas.

XX asrga kelib yangi soha – yangiliklar kiritish haqidagi fan paydo bo'ldi. Bu fan doirasida moddiy ishlab chiqarish sohasiga texnik yangiliklar kiritish qonuniyatlari o'rganila boshlandi. Yangiliklar kiritish haqidagi fan faoliyati yangicha ta'lim tizimiga o'tish yo'lidagi harakatlar bilan asoslanadi. Shunga ko'ra yangi bilimlarga ehtiyoj yangilik, innovatsiya, innovatsion xizmat ko'rsatish g'oyalarini tatbiq etishga qaratilgan ehtiyojdan kelib chiqqan. Mamlakatimizda yuz berayotgan tub o'zgarishlar jamiyat hayotining barcha sohalarini yangicha innovatsion yondashuvlar asosida qayta ko'rib chiqishni talab etmoqda. Istiqlol yillarida ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasida qator samarali ishlar amalga oshirildi, biroq ta'lim muassasalari bir-biridan uzilgan holda yagona maqsadga erishish usullarini aniq belgilay olmaganliklari, ular o'rtasidagi integratsiya, mantiqiy davomiylik ko'p ham inobatga olinmaganligi natijasida "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"dagi talablar to'liq bajarilmadi.

Shundan kelib chiqqan holda bugungi kunda ta'lim tizimidagi muammolar va ularni hal qilishda pedagogik ta'lim innovatsion klasteri tizimidan foydalanish maqsadga muvofiq. Ta'lim klasterining maqsadi ta'lim va ilmiy jarayonlarni takomillashtirishga qaratilgan bo'lib, ta'lim berish, o'quv adabiyotlarini yaratish, pedagogik kadrlar ilmiy salohiyatini oshirish, ta'lim va tarbiya uzviyligi bilan bog'liq umumiy yo'nalishlarda faoliyat olib boradi.

Pedagogik ta'lim klasteri – muayyan geografik hududning raqobatbardosh pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish maqsadida bir-biri bilan uzviy aloqadagi teng huquqli alohida subyektlar, texnologiyalar va inson resurslarining integratsiyalashuvini kuchaytiruvchi mexanizm. Klaster tizimi subyektlari bir-birlarini qo'llab-quvvatlagan holda yagona maqsad atrofida birlashadi. Ta'lim klasterini shakllantirish esa viloyat, shahar, tumanlar kesimida yagona aloqa-axborot almashuv, aniq maqsadga yo'naltirilgan yo'l xaritasi asosida faoliyat olib borishdir. Masalan, ona tili va adabiyot fanini o'qitishda umumta'lim, o'rta maxsus va oliy ta'lim tizimidagi soha mutaxassislarini o'zaro hamkorlikda fan dasturlari, darsliklar mazmuni, ta'lim standartlari va boshqa jihatlarni uyg'unlashtirish asosida yetuk kadrlarga bo'lgan talabni qondirishda faol ishtirok etishga yo'naltirishdan iborat.

Ijtimoiy jarayonlarning yuksak dinamikasi, ulkan axborot oqimi va kundalik hayotning texnologiyalashuvi sharoitida zamonaviy insonning asosiy belgilaridan biri uning bilim, malaka va ko'nikmalarini amaliyotda qo'llay olish qobiliyatidir. Buning uchun davlatimizda yetishib kelayotgan yosh avlod tarbiyasi, ta'lim sifati muhim o'rin egallaydi. Yosh avlodning ta'lim-tarbiyasiga e'tibor qaratish davlat rivojida muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham 2017–2021-yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasi ishlab chiqildi. Eng avvalo, maktabgacha ta'lim muassasalarini moddiy-texnik bazasini tubdan yangilash, zamonaviy tipdagi maktabgacha ta'lim muassasalarini tashkil qilish, tarbiyaga yangicha yondashuv konsepsiyalari ishlab chiqish bosh maqsad qilib qo'yildi.

Ona tili va adabiyot fani misolida ta'lim tizimiga klasterni joriy etish tamoyillari sifatida quyidagilarni tavsiya etish mumkin:

– umumta'lim maktablaridagi ona tili va adabiyot fanlariga doir o'quv dasturlarini o'rganib, pedagogika oliygohlari o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishidagi namunaviy fan dasturlari hamda o'quv rejalarini takomillashtirish yuzasidan takliflar berish;

– iqtisodiy tarmoqlar muammolari yuzasidan ilmiy tadqiqotlar olib boruvchi ilmiy tekshirish institutlarining amaliy va fundamental loyihalari bilan tanishish va olingan ma'lumotlar asosida pedagogika oliygohlari o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishidagi namunaviy fan dasturlari, o'quv rejalarini takomillashtirish yuzasidan takliflar berish;

– ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari o'rtasida mediaforum tashkil qilish.

Bunday yaqin hamkorlik bir maqsaddagi ta'lim obyekti va subyektlari faoliyatida ijobiy samara beradi. Ta'lim sifati oshadi, darslik va majmualardagi har xilliklarga barham beriladi. Ilmiy-amaliy seminarlar, mediaforumlar natijasida umumta'lim, o'rta maxsus va oliy ta'lim orasidagi ilmiy va ma'naviy masofa yaqinlashadi. Yagona integratsiyalashtirilgan ma'lumotlar bazasi yaratiladi, monitoring qilish osonlashadi, viloyat o'quvchilari va o'qituvchilari haqidagi ma'lumotlarning yakdilligiga erishiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O.Mallayev. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2000.
2. M.A. Mahkamova. Innovatsion texnologiyalar boshqaruvi. Monografiya. – Toshkent: Aloqa, 2011.
3. Г.Б.Болоний, В.Ю.Лыскова. Кластерный подход и его использование в научно-педагогических исследованиях // Вестник ТГУ, Т. 16 вып. 1. 2011.
4. Porter M. Competitive Strategy: Techniques for Analyzing Industries and Competitors, Cambridge, 1980. 454 pages.
5. Шамова Т.И. Кластерный подход к развитию образовательных систем // Взаимодействия образовательных учреждений и институтов социума в обеспечении эффективности, доступности и качества образования региона: Материалы 10-го Международного образовательного форума (Белгород, 24–26 окт. 2006 г.): в 2 ч. / БелГУ, МПГУ, МАНПО; отв. ред. Т.М.Давыденко, Т.И. Шамова. Белгород: Издательство БелГУ, 2006. Ч. 1. – С. 24–29.
6. Шарай Н. Кластерный подход в интеграции. УГ Москва, №15 от 14 апреля 2015 года.